

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Biologik aktivlarni hisobga olishning nazariy masalalari va ularni amaliyotda qo'llash muammolari

Ravshanov Alisher Bobaqulovich

Теоретические вопросы учета биологических активов и проблемы его применения на практике

Равшанов Алишер Бабакулович

Theoretical issues of accounting of biological assets and problems of its application in practice

Ravshanov Alisher Babakulovich

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotasiya:** Moliyaviy hisob amaliyotida "biologik aktivlar" moliyaviy hisob va hisobotning muhim ob'ekti sifatida tan olinadi. Biologik aktivlarni to'g'ri tasniflash va hisobini to'g'ri tashkil etish moliyaviy hisobotning sifat ko'rsatkichlarini yanada oshiradi. Maqolada muallif tomonidan biologik aktivlarga doir tushunchalar ilmiy ta'riflar berilgan va ularni hisobga olinishiga doir muammolar hamda uning yechimlari keltirib o'tilgan.
- **Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligi, cheklangan resurslar, xorijiy investitsiya, biologik aktivlar, qishloq xo'jalik faoliyati, dehqonchilik hosili, chorvachilik mahsuloti, asosiy mahsulot, yondosh mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yuqori rentabelli, past rentabelli.
- **Аннотация:** В практике финансового учета «биологические активы» признаются важным объектом финансового учета и отчетности. Правильная классификация и учет биологических активов дополнительно повышают качество финансовой отчетности. В статье автор дает научные определения понятий биологических активов, а также представляет проблемы и решения, связанные с их учетом.
- **Ключевые слова:** Продовольственная безопасность, ограниченные ресурсы, иностранные инвестиции, биологические активы, сельскохозяйственная деятельность, сельскохозяйственная продукция, животноводческая продукция, первичная продукция, вторичная продукция, дополнительная продукция, высокая рентабельность, низкая рентабельность.
- **Abstract:** In the practice of financial accounting, "biological assets" are recognized as an important object of financial accounting and reporting. Correct classification and accounting of biological assets additionally improve the quality

of financial reporting. In the article, the author gives scientific definitions of the concepts of biological assets, and also presents problems and solutions related to their accounting.

- **Key words:** Food security, limited resources, foreign investment, biological assets, agricultural activity, agricultural products, livestock products, primary products, secondary products, additional products, high profitability, low profitability.

KIRISH

Mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronlikka intilib, ulkan obro' qozonish maqsadida chiqindi gazlarning me'yori-dan ortiq havoga chiqarilishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo-global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi.

Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassis-lari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan[1].

Qishloq xo'jaligi butun dunyoda aholini oziq-ovqat mahsulot-lari, agrosanoatni xom-ashyo bilan ta'minlovchi asosiy tar-moqlardan biridir. Shunday ekan, bu ekologik muammolar inson kapitali va ularning yashab qolishiga ham ta'sir etmas-dan qolmaydi.

1996-yilda Oziq-ovqat bo'yicha Jahon sammitida belgilan-gan oziq-ovqat xavfsizligi - "barcha insonlar har doim yetarli, xavfsiz va sog'lom oziq-ovqatga, ularning oziq-ovqat ehti-yojlari va taom afzalliklariga mos ravishda jismoniy va iqtisodiy kirish imkoniyatiga ega bo'lgan holatdir, bu esa faol va sog'lom hayot kechirish uchun zarurdir"[2, 3].

Jahon bozorida xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab kundan-kunga ko'payib borishi, dunyo mamlakatlari ilm-fani oldiga mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalan-ish va ilmiy asoslangan innavasion texnologiyalarni qo'llagan holda tobora o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish muammosi masalasini qo'yimoqda. Shu sababli ham jahon iqtisodiyotida cheklangan resurslar taqchilligi muammosi biologik aktivlar-dan samarali foydalanishni, ularda yuz beradigan biotrans-formasiya jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatishni taqozo etadi. Xalqaro moliyaviy hisob maliyotida "biologik aktivlar" moliyaviy hisobotning muhim ob'ekti sifatida tan olinadi.

Biroq, hozirgi paytda moliyaviy hisob tizimida qo'llanilayot-gan hisobotlarda qishloq xo'jaligi, biologik aktivlar to'g'risi-dagi ma'lumotlar bu ma'lumotlardan foydalanuvchilarning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi. Shu sababli ham qishloq xo'jalik korxonalarining barcha toifadagi foy-dalanuvchilari uchun foydali bo'lgan ishonchli hisobotini shakllantirish imkonini beradigan normativ-huquqiy, tash-kiliy va uslubiy ishlar tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa

hisoblanadi.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga muvofiq milliy buxgalteriya hisobini unifikatsiya qilish qishloq xo'jaligi rivo-jlangan mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu standartlarga e'tibor qaratilishi korxo-nalar faoliyati samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning agrar sektoriga xorijiy sarmoyalarni jalb etish, sohaning raqobat-bardoshligini oshirish, mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'bat-lantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Biologik aktivlarni hisobga olishning nazariy masalalari va ularni amaliyotda qo'llashga oid adabiyotlar soni cheklan-gan. Bundan tashqari, tegishli muammolar va 41-sonli Bux-galteriya hisobining xalqaro standarti "Qishloq xo'jaligi"ga rioya qilmaslik hozirgi kunda yetarli darajada tadqiqotlarda ko'rib chiqilmagan. Adabiyotda asosan ularning prinsiplarga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda biologik aktivlarning hisob ob'ektlari sifa-tidagi tasniflanishi, tarkibi, tan olinishi, baholanishi, hisobda aks ettirish tartiblari, biologik aktivlarning real bozor qiyma-tini aniqlash usullari, mana shu ma'lumotlar asosida shakl-lantirilgan axborotlarni hisobotda aks ettirish tartiblarini ishlab chiqilmaganligi moliyaviy hisobotlar to'liqligi va ishon-chligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayrim biologik aktivlar hisobini tashkil etish uchun amalda foydalanyotgan standartlarda belgilangan ayrim tartib-qoi-dalar xalqaro standartlarda belgilangan tartiblardan tubdan farq qiladi.

Amerika Sertifikatlangan Buxgalterlar Instituti (AICPA) ta'kid-lashicha, samarali axborot deganda, uning qiymati foydaga nisbatan juda yuqori bo'lishidan qat'i nazar, qaror qabul qil-ishga hissa qo'shadigan ma'lumotlar tushuniladi. Samarali ma'lumotlar ishonchli, xolis va bo'yalmagan bo'lishi kerak. Samarali ma'lumotlarga ega bo'lgan holda, qaror qabul qilu-vchilar kompaniyaning kelajagini yaxshiroq baholashlari mumkin[4].

Xalqaro moliyaviy hisobot standarti 41-"Qishloq xo'jaligi" BHXSGa muvofiq biologik aktivlar - bu o'tgan voqealar nati-jasida kompaniya tomonidan nazorat qilinadigan hayvonlar va o'simliklar, ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish ehtimoli mavjud, ularning adolatli qiymati yoki tannarxi ishonchli o'lchanishi mumkin [5].

Shuni aytish kerakki, 41-"Qishloq xo'jaligi" BHXSGa, moliyaviy

hisobotlarni taqdim etish va qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid ma'lumotlarni oshkor qilish uchun mo'ljallangan. 41-BHXS qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli bo'lsa, quyidagi moddalarga nisbatan qo'llaniladi:

1. Biologik aktivlar.
 2. O'rim-yig'im yoki qayta ishlash vaqtidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari.
 3. Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq davlat subsidiyalari. Biologik aktivlar qishloq xo'jaligi korxonalari aktivlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
- Olib borilgan tadqiqotlar, turli axborot manbalarida "Qishloq xo'jaligi" hamda "biologik aktivlar" tushunchalariga berilgan ta'rif va tavsiflarni ham o'rganib chiqishni taqozo etdi.
- Hozirgi kunda Respublikamizda qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar va uning tarkibiy qismlarini hisobini tartibga soluvchi BHMS yaratilmaganli sababli, ularning aniq ta'riflari ham mavjud emas.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 41-"Qishloq xo'jaligi" deb nomlanuvchi standartda biologik aktivlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Biologik aktiv – bu tirik hayvon yoki o'simlikdir"[5].

Xuddi shuningdek, "Qishloq xo'jaligi faoliyati - bu tadbirkorlik sub'ekti tomonidan sotish yoki qishloq xo'jaligi hosiliga yoki qo'shimcha biologik aktivlarga aylantirish uchun biologik aktivlarning biologik transformatsiyasini va yig'imini boshqarishdir" deb ta'riflangan.

Biologik aktivlar - bu korxona tomonidan nazorat qilinadigan va aniqlangan, o'z faoliyatida ishlatilishi, foydalanish uchun boshqalarga berilishi yoki iqtisodiy foyda olish uchun begonalashtirilishi mumkin bo'lgan o'tmishdagi biologik jarayonlarning natijalari sifatida hayvonlar va o'simliklar va ularning qiymati ishonchli tarzda aniqlanishi mumkin[6].

Tadbirkorlik sub'ekti biologik aktivni yoki qishloq xo'jaligi hosilini tan olishi lozim, faqatgina qachonki:

- tadbirkorlik sub'ekti aktivni o'tgan hodisalar natijasida nazorat qilsa;
- tadbirkorlik sub'ektiga aktiv bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy manfaatlar oqimi sodir bo'lishining ehtimoli mavjud bo'lsa;
- aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxi ishonchli baholansa[5].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar hisobining metodologiyasini o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot faoliyati olib borishning iqtisodiy-statistik, analiz va sintez, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

41-"Qishloq xo'jaligi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga ko'ra biologik aktivlari quyidagi belgilarga ko'ra tasniflanadi:

- tirik hayvon yoki o'simliklar;
- yig'im jarayonidagi qishloq xo'jaligi hosillari va chorvachilik mahsulotlari;
- 41-"Qishloq xo'jaligi" BHXSda qamrab olingan davlat grantlari:
- agarda davlat granti sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda baholangan biologik aktivga tegishli bo'lsa yoki davlat granti tadbirkorlik sub'ektidan muayyan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanmaslikni talab etsa. Bizning fikrimizcha biologik aktivlar har qanday hayvon yoki o'simliklar bo'libgina qolmasmasdan, avval sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyasi natijasida vujudga kelgan, iste'molga mo'ljallangan, o'z qiymatiga ega bo'lgan, sub'ekt tomonidan nazorat qilinadigan moddiy qiymatliklar ekanligi qayd etilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xuddi shuningdek, bizningcha "Qishloq xo'jalik faoliyati - bu tadbirkorlik sub'ekti tomonidan biologik aktivlarni yetishtirish, maqsadga muvofiq saqlash, ko'paytirish, ulardan hosil olish va iste'molga yetkazib berish bilan bog'liq jarayonlarni boshqarishdir".

Biologik aktivlarning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ularni yetishtirish, ulardan mahsulot olish bevosita tabiat va tabiiy muhitga bevosita bog'liq bo'ladi. Yana bir xususiyati biologik aktivlarning sifat va miqdor jihatdan o'zgarishiga ya'ni, biotransformatsiyasi samarasi inson tomonidan unga ta'sir ko'rsatish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tabiiy o'rmonlardagi o'simliklar va hayvonlar, okeanlar, dengizlar, tabiiy kullar va daryolardagi baliqlar biologik aktivlar bo'lib hisoblanmaydi. Chunki, ularni biologik aktivlar deb tan olish uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- bo'lib o'tgan hodisalar natijasi hisoblanib, u tadbirkorlik sub'ekti tomonidan nazorat qilinsa;
- tadbirkorlik sub'ektiga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlar oqimini keltirishi ehtimoli mavjud bo'lsa;
- aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxi ishonchli baholansa.

Yuqoridagi ta'riflar asosida biologik aktivlarga quyidagicha ta'rifni keltiramiz: "Biologik aktivlar – bu tirik hayvonlar va o'simliklar hisoblanib, uning biotransformatsiyasi yoki mahsulot yig'imi xo'jalik sub'ekti tomonidan iqtisodiy manfaat olish maqsadida boshqariladigan aktivlardir". Bizning fikrimizcha ushbu ta'rif biologik aktivlarning asl mohiyatini aniqroq tavsiflab beradi.

Biologik aktivlarning mukkamal ta'rifini ishlab chiqish hamda ushbu ta'rifni respublikamizning "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni va "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli standartga kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ushbu qonun hujjatlarida

biologik aktivlarga va u bilan bog'liq quyidagi tushunchalarga ham aniq ta'rifni berish maqsadga muvofiqdir:

Qishloq xo'jalik mahsuloti - bu tadbirkorlik sub'ekting iqtisodiy manfaat ko'rish maqsadida biologik aktivlarga ta'sir ko'rsatishi natijasida ulardan olinadigan mahsulotidir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda va joylashtirilishiga ko'ra, yerga jisman birlashtirilgan va yerga jisman birlashtirilmagan biologik aktivlarga ajratish mumkin.

Yerga jisman birlashtirilgan biologik aktivlarga manzarali va mevali daraxtlarni, qishloq xo'jalik ekinlarini misol keltirish mumkin.

Yerga jisman birlashtirilmagan biologik aktivlarga chorvachilik faoliyatini: qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik, qo'ychilik, parrandachilik va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Yerga jisman birlashtirilgan biologik aktivlarning biotransformatsiyasi natijasida undan olinadigan mahsulotlar dehqonchilik hosili hisoblanadi.

Dehqonchilik hosili - bu yerga jisman birlashtirilgan biologik aktivlarga sub'ekt tomonidan ijobiy ta'sir ko'rsatish natijasida undan olinadigan mahsulotdir.

Chorvachilik mahsuloti - bu tirik hayvonlar va boshqa shunga o'xshash yerga jismonan birlashtirilmagan biologik aktivlarga sub'ekt tomonidan ijobiy ta'sir ko'rsatish natijasida ulardan olinadigan mahsulotdir.

Yuqoridagi keltirilgan ta'riflar biologik aktivlarning asl mohiyatini to'laroq tavsiflaydi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, biologik aktivlarni operatsion va operatsion bo'lmagan, amortizatsiya qilinadigan va amortizatsiya qilinmaydigan biologik aktivlarga guruhlash mumkin.

Operatsion biologik aktivlar foydalanishda bo'lgan biologik aktivlar hisoblansa, operatsion bo'lmagan biologik aktivlar foydalanishga tayyorlanayotgan biologik aktivlardir.

Amortizatsiya qilinadigan biologik aktivlar - bu dastlabki qiymati yoki haqiqiy tannarx bo'yicha hisobga olinadigan yetilgan uzoq muddatli biologik aktivlar hisoblanib, unga ishchi hayvonlar va ko'p yillik o'simliklar.

Amortizatsiya qilinadigan biologik aktivlar - bu dastlabki qiymati yoki haqiqiy tannarx bo'yicha hisobga olinadigan yetilgan uzoq muddatli biologik aktivlar hisoblangan mahsuldor hayvonlar, qisqa muddatli yosh o'stirishdagi hayvonlar, yosh va yetilgan boquvdagi hayvonlar, qisqa muddatli daraxt kuchatlari, dehqonchilik ekin turlari (paxta, g'alla va b.) o'simliklardir.

Biologik aktivlarni sanab o'tilgan guruhlar guruhlash, ularni buxgalteriya hisobida hisobga olinishini shunga mos ravishda tashkil etish moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchiligidan va sifat xususiyatlarini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, xo'jalik sub'ekting buxgalteriya hisobi va hisobotida biologik aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash uchun mustaqil ravishda bir necha guruhlar bo'lish

mumkin. Masalan, hayvonlarning turga, zotiga, yosh va jinsga qarab guruhlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekin turlari va navlar, yoshi va joylashgan joyi imkoniyatlariga guruhlash mumkin.

Biologik aktivlarning tannarxini aniqlashda va hisobga olishda quyidagi olinadigan mahsulot turlarga alohida ahamiyat qaratiladi:

- asosiy mahsulot;
- yondosh mahsulot;
- qo'shimcha mahsulot yoki ikkilamchi mahsulot.

Qishloq xo'jalik faoliyatidan olinadigan mahsulotlarning bunday guruhlariga ajratilishi xo'jalik sub'ekting faoliyat turlariga bog'liq bo'ladi.

Masalan, sut yo'nalishidagi firmalarda asosiy mahsulot sut hisoblansa, yondosh mahsulot olingan nasl (buzoq), qo'shimcha mahsulot gung (nuri), shox va boshqalar hisoblanadi.

G'allachilik yo'nalishida esa, asosiy mahsulot don hisoblansa, yondosh mahsulot don chiqiti (chori), qo'shimcha mahsulot somon hisoblanadi.

Shu sababli, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotlarda batafsilroq aks ettirish uchun ularni tasniflanishini mahalliy va xalqaro standartlarda aks ettirilmagan xususiyatlar bilan to'ldirish kerak.

Tasniflashdagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun biz quyidagi tasnif mezonlarini kiritishni taklif qilamiz:

- foydalanish yo'nalishiga ko'ra (asosiy faoliyatda foydalaniladigan, yordamchi faoliyatda foydalaniladigan, umumxo'jalik faoliyatida foydalaniladigan biologik aktivlar);
- joylashishiga ko'ra (erga jisman birlashtirilgan, yerga jisman birlashtirilmagan biologik aktivlar);
- nima maqsadda mo'ljallanishiga ko'ra (sotishga mo'ljallangan, qayta ishlashga mo'ljallangan);
- daromad darajasi bo'yicha (yuqori rentabellik va past rentabelli biologik aktivlar).

Asosiy faoliyatda foydalaniladigan biologik aktivlarga chorvachilik fermalaridagi hayvonlar va dehqonchilik fermer xo'jaliklaridagi ekin turlari va boshqalar kiradi.

Yordamchi faoliyatda foydalaniladigan biologik aktivlarga arava tortadigan otlar, yer haydaydigan buqalar (hukizlar) va boshqalar kiradi.

Umumxo'jalik faoliyatida foydalaniladigan biologik aktivlarga xo'jalik hududini qo'riqlashda qoravullar tomonidan foydalaniladigan otlar va boshqa umumxo'jalik faoliyatida foydalaniladigan hayvonlar kiradi.

Sotishga mo'ljallangan biologik aktivlar bu sotuvga tayyor bo'lgan yakuniy mahsulotdir.

Sotishga mo'ljallangan biologik aktivlarni moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlarda aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Qayta ishlashga mo'ljallangan biologik aktivlar - bu yakuniy mahsulot ishlab chiqarishda mustaqil mahsulot yoki

boshqa mahsulotning tarkibiy qismi sifatida foydalaniladigan aktivlar. Ular boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini ishchi holatida saqlash uchun ham ishlatilishi mumkin.

Yuqori rentabellikga ega biologik aktivlar bir qancha xususiyatlarga ega, jumladan:

- faoliyat natijasida qimmat mahsulotning olinishi;
- olinadigan nasl;
- yuqori iqtisodiy foydalilik.

Past rentabelli biologik aktivlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan aktivlardir:

- unumdorlikning past darajasi;
- o'limning yuqori darajasi;
- past iqtisodiy foyda.

Ushbu biologik aktivlar guruhi xalqaro standartlarda har xil turdagi aktivlarning likvidlik darajasidan kelib chiqqan holda balans tuzishni nazarda tutganligi bilan ajralib turadi.

Biologik aktivlarning bu kabi tasniflanishi ularni analitik hisobini to'g'ri tashkil etish va foydalanuvchilarni aniq va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash uchun yirik qishloq xo'jalik tashkilotlar uchun ayniqsa dolzarbdir. Korxonada yuqori rentabelli aktivlarning mavjudligi uni potensial investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Ularni moliyaviy hisobotda alohida qator sifatida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moliyaviy hisobotda biologik aktivlarni batafsil yoritib berilishi, ularning tarkibini batafsil tahlil qilish va tashkilotning iqtisodiy salohiyatini baholash imkonini beradi.

Quyidagi xususiyatlarga javob beradigan aktivlarni sotish qiyin deb hisoblanadi:

- iste'mol talabi past bo'lgan yoki murakkab ishlab chiqarish texnologiyasini talab qiladigan;
- yuklarni tashish qiymati yuqori bo'lgan yoki qiyin tashiladigan;
- nafaol savdo bozorlariga ega bo'lgan;
- yakuniy mahsulotlarni yuqori narxda ishlab chiqarish.

Oson sotiladigan biologik aktivlar quyidagilarga ega:

- talabning yuqori darajasi yoki kundalik ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan;
- odatiy sharoitlarda saqlab turish imkoniyatiga ega;
- yakuniy mahsulotlarni arzon ishlab chiqarish.

Biologik aktivlar tarkibida ushbu mezonlarni aniqlagan holda aktivlar, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati har xil turdagi aktivlarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan: sotish qiyin bo'lgan resurslardan boshqa ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanishi va sotilishi oson bo'lgan resurslarni sotishga yo'naltirishi mumkin.

Korxona tomonidan bunday qarorlarni qabul qilinishi boshqaruvni yanada samaraliroq qilishi, buxgalteriya hisobi va faol bozorda aktivlarni adolatli qiymatni aniqlashni osonlashtirish imkonini beradi.

Milliy hisobdan 41-BHXSga o'tish qishloq xo'jaligi sohasida

adolatli qiymatni o'lchashga bosqichma-bosqich o'tishning birinchi bosqichidir. 41-BHXSda tasvirlangan biologik aktivlarning adolatli qiymatda baholash daromadlarning o'zgaruvchanligini oshiradi.

41-«Qishloq xo'jaligi» BHXSdan foydalanishning barcha afzalliklariga qaramay, kamchiliklar ham mavjud. Kamchiliklaridan biri shuki, standart faqat yig'im-terim davrigacha bo'lgan qishloq xo'jalik ishlari jarayonini qamrab oladi, shuning uchun 2-«Tovar-moddiy zaxiralar» BHXS biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib olishdan keyingi qayta ishlash jarayonidagi biologik aktivlarni tartibga solish uchun ishlatilishi kerak. Ya'ni, 41-BHXS qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining butun jarayonini tartibga sola olmaydi. Yuqoridagi mezonlarga asosan shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi har bir harakat 41-BHXSga muvofiq tartibga solinmaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan keyin biologik aktivlar siftida tan olinishi xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan milliy standartlarda o'z aksini topishi va u bilan tartibga solinishi lozim deb hisoblaymiz. Bu kabi muammolar ushbu aktivni hisobga olishni qiyinlashtiradi.

Malumki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlar tavsiyalarini hisobga olgan holda bir-biriga yaqinlashtirish zarur. Bu mavjud kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tavsiyaviy xarakteriga ega bo'lishi bilan bir qatorda qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MHXS turli milliy moliyaviy hisobot standartlarini birlashtirish va ularni bir-biriga yaqinlashtirish maqsadida yaratilgan. 41-BHXS qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy hisobotlarini bir-biri bilan taqqoslash va ularning faoliyatiga baho berish usulidir.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro hisob amaliyotida "biologik aktivlar" moliyaviy hisobotning muhim ob'ekti sifatida tan olinadi.

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, biologik aktivlar hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlarning milliy moliyaviy hisoboti uchun muhim va dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egallab, oxirgi yillarda bu sohaga ham xorijiy investitsiyalarni

keng jalb qilinishiga qaramasdan, ushbu aktivlarni hisobini yuritish va tan olish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga mos keladigan nazariy, tashkiliy va metodologik asoslari to'lig'icha yaratilgan deb bo'lmaydi. Jumladan, respublikamizda biologik aktivlar hisobiga doir milliy standartlar yaratilgan emas. Milliy hisobimizda biologik aktivlarning hisobini yuritish asosiy vositalar va tayyor mahsulotlar sifatida 5-BHMS va 4-BHMSlar bilan tartibga solinadi.

O'rganishlar natijasiga ko'ra biologik aktivlar tushunchasini to'g'ri anglash va tasniflash orqali ularning hisobini to'g'ri tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- biologik aktivlar, qishloq xo'jalik faoliyati, qishloq xo'jalik mahsuloti, dehqonchilik mahsuloti, chorvachilik mahsulot tushunchalariga to'g'ri ta'rif berish;
- turli tasniflash belgilari bo'yicha biologik aktivlarni turlariga ajratib hisobini to'g'ri tashkil etish;
- biologik aktivlarni hisobini MHXSga yaqinlashtirish maqsadida amaliyotda ularni tan olish, baholash va hisobga olinishini tartibga soladigan BHMSni ishlab chiqish hamda hisobini takomillashtirish.

Biologik aktivlarga doir tushunchalarni to'g'ri talqin etish, ularni to'g'ri tasniflash moliyaviy hisobotning biologik aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlari ishonchliligi va sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Ravshanov Alisher Bobaqulovich, QarDTU katta o'qituvchisi / Равшанов Алишер Бабакулович, Старший преподаватель КарГТУ / Ravshanov Alisher Babakulovich, Senior Lecturer, KarSTU**

► alisherravshanov0571@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-5204-2467>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. <https://yuz.uz/uz/news/ilmiiy-izlanishlar-global-yekologik-muammolar-yechimi>.
- [2]. Trade Reforms and Food Security: Conceptualizing the Linkages. FAO, UN, 2003. Qaraldi: 2015-yil 14-fevral.
- [3]. Patel, Raj. „Raj Patel: Food sovereignty' is next bigidea". Financial Times (2013-yil 20-noyabr). 2023-yil 15-yanvarda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2014-yil 17-yanvar.
- [4]. Yu-Gui ChEN. Improving Corporate Repors around Information Needs - A Brief Introduction to the American Institute of Certified Public Accountans Research Report "Improving Corporate Repors" [J]. Accounting Research, 1996 (05).
- [5]. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 41-Qishloq xo'jaligi.
6. Букур, В. Учет биологических активов / В. Букур, Л. Тодорова. – Кишинев, 2008. – 254 с.
- [6]. Rayimovna, E. S. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. Journal of Corporate Finance Management and Banking System (JCFMBS) ISSN: 2799-1059, 2(02), 1-10.